

## **MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTINI BOSHKARISHDA DEREKTOR MUTAXASSISLARINI MEDIAKOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

*Nargiza Mo‘minova Sabitdjanovna*  
*Maktabgacha ta’lim tashkilotlari*  
*direktor va mutaxassislarini qayta*  
*tayyorlash va ularning malakasini*  
*oshirish instituti dotsenti*

**Kalit so‘zlar:**Tizim, medianing mafkuraviy, media axborot, texnik vositalar, axborot-kommunikatsiya, elektron pochta, internet.

Maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanishi maktabgacha ta’lim tarbiya jarayoniga yangiliklarni faol joriy etishni o‘z ichiga oladi, bu yesa uning faoliyati samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik tele-radio aloqa tizimlarining takomillashishi axborot almashuv imkoniyatlarini keskin darajada kengayib ketayotganidan dalolat bermoqda. Shuning uchun ham kishilarda ayniqsa, o‘zib kelayotgan yoshlarda axborot olish madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardan biri xisoblanadi. Shunday ekan, axborot makonini globallasuvi sharoitida mediata’limining o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, ijtimoiy – siyosiy ahamiyat kasb etadi. Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida globallasuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda.

Bunday holda maktabgacha ta’limdagi innovatsion jarayonlar bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim muhitini yaratish va rivojlantirish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mediata’limning o‘zi nima, uning mohiyati va xususiyatli jihatlari nimada ekanligi borasidagi so‘nggi yillarda pedagogik muhitda eng dolzarb masalaga aylandi. Ta’limning axborot-kommunikatsiya vositalariga asoslangan zamonaviy ta’lim paradigmasi bolalarga tayyor bilim va ko‘nikmalarni uzatishni emas, balki bolada mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini uyg‘otishga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, bolalarning bevosita o‘quv faoliyati davomida ishlashi interaktiv kompyuter dasturlari va audio-vizual vositalar orqali o‘qituvchi bilan muloqot qilish xarakteriga ega.

Maktabgacha ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy shartlaridan –bolalar kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini biladigan, u bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuterlardan foydalanishning sanitariya me’yorlari va qoidalarini, ularni qo‘llashning axloqiy qoidalarini biladigan bola shaxsini tarbiyalashdir.

Media iste’molining yuksak darajasi hamda zamonaviy jamiyatlarning ommaviy axborot vositalari bilan to‘lib-toshganligi.

1. Medianing mafkuraviy muhimligi, va sanoat tarmog‘i sifatida ularning auditoriya ongiga ta’siri.


2. Media axborot miqdorining tez o‘shishi, uni boshqarish hamda uning tarqalishi mexanizmlarining kuchayishi.
3. Asosiy demokratik jarayonlarga medianing suqilib kirishi jadalligi.
4. Barcha sohalarda vizual kommunikatsiya va axborot qiymatining ortishi.
5. Maktab o‘quvchilari (talabalar)ni kelajakdagi talablarga mos yo‘nalish bilan o‘qitish zarurati.
6. Axborotni xususiylashtirishning o‘sib borayotgan milliy va xalqaro jarayonlari.

Shunday qilib, media (ommaviy kommunikatsiya vositalari) kishilar hayotida va ta’lim jarayonida kundan-kunga katta-rol o‘ynamoqda.

Mediata’limning maqsadi yoshlarda mediaga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, uni o‘quv tashkilotlaridan (maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, oliy o‘quv yurtlarini) keyingi hayotda ommaviy axborot vositalarining kreativ (ijodkor) foydalanuvchisiga aylantirishdir.

Mediata’limning asosiy vazifalari:

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi avlodni turli axborotni tushunishga, uning ruhiyatga ta’siri oqibatlarini anglashga, texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning og‘zaki bo‘lmagan shakllari asosida muloqot usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatishdir.



Shunday qilib, an’anaviy mediata’lim yoshlar tarbiyasining quyidagi maqsadlarini ilgari surgan:

- yuksak madaniyatga hurmat;
- axloqiy sog‘lom xatti-harakat me’yorlari;
- siyosat to‘g‘risidagi oqilona tasavvurlar.

Bugungi kunda ushbu sohada yangi ommaviy axborot vositalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan o'zgarishlar yuz bermoqda. Ko'pincha mediata'lim yoshlarni ommaviy axborot vositalardan asrashi lozim bo'lgan emlash turi sifatida idrok etilmoqda, ammo bunday yondoshuv barcha narsani salbiy oqibatlariga olib borib taqagan holda bolalarga yangi ommaviy axborot vositalardan foydalanishdan olinishi mumkin bo'lgan barcha qoniqishlarni bera olmaydi[3]. Hozirda mediata'limdan yoshlarni o'z tanloviga ko'ra ongli qaror qabul qilishni rag'batlantiruvchi himoya va tayyorgarlikning omuxta shakllarini taqozo etmoqda. Mediata'lim yoshlar o'rtasida ommaviy axborot vositalarni tushunishni rivojlantirishni ko'zda tutadi, bu o'z navbatida ularni qurshab turgan mediamadaniyatda ongli ishtirok etishiga, unga qiziqishiga olib boradi.

Maktabgacha tarbiyadan boshlab oliy o'quv yurtidagi ta'limga qadar ta'limning barcha bosqichlarida mediata'limning ahamiyatini hisobga olgan holda, umumta'lim maktablari, akademik litseylar dasturlari va o'quv rejalariga ushbu yo'nalish bo'yicha maxsus kurslarni kiritish zarur bu ham alohida darslar shaklida, ham maxsus yoki majburiy kurslar ko'inishida amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, direktorlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh bolalarning yoshga oid anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlari hamda o'quv faoliyatining diagnostikasi xususiyatlaridan yaxshi xabardor bo'lishlari lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy yetishning zaruriy sharti maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida kasbiy axborot madaniyati va umumiy axborot madaniyatini shakllantirishdir. Zamon bilan hamnafas bo'lishni istagan ijodkor direktor o'z amaliy faoliyatlarida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganishlari, bola uchun yangi texnologiyalar olami uchun qo'llanma bo'lishi va ular uchun axborot madaniyati asoslarini shakllantirishlari zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, direktor mediakompetentligi deganda “O'quv faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mustaqil ravishda keng ko'lamdagi o'quv vazifalarini hal etishga tayyorligi va bu sohada malaka oshirish yo'llarini loyihalashtirish qobiliyati tushuniladi“. Direktorlarning mediakompetentligini oshirish uning ish faoliyatini faollashtirish va osonlashtirish imkonini beradi, tarbiyachining rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirish, o'quv-uslubiy faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.[1] Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish: bolalarda o'quv faoliyatiga qiziqishni oshiradi va direktorning kasbiy salohiyatini oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining mediakompetentligini oshirish uzluksiz malaka oshirish tizimida amalga oshiriladi. Direktorning axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimlari bevosita o'quv faoliyatida bolalar bilan ishlash mazmuni va usullari to'g'risidagi axborotlar oqimini ko'paytirish hamda unga tayyorgarlik ko'rish uchun sarflanadigan vaqtni kamaytirish imkonini beradi.

Direktor maktabgacha ta’limning eng muhim tarkibiy qismi bolalar faoliyati ekanligini unutmashlari lozim. Bevosita o’quv faoliyatining har xil turlari bir-birini to’ldirishi mumkin va ular bola rivojlanishining barcha bosqichlarida o’zgarishi kerak.

Demak, besh yoshda bunday ta’limning asosini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o’yin faoliyatining tarbiyaviy xarakteri tashkil etishi kerak. Qiziquvchan maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyalanuvchilari kompyuterda o’yin o’ynab o’z qiziqishlari bilan bog’liq bo’lgan narsalarni eslab qoladilar, shuning uchun bunday tadbirlar o’ziga xos, qisqa va tushunarli bo’lishi kerak. Ma’lumotlarni shunday joylash kerakki o’rganayotgan bolaning tajribasiga asoslangan bo’lishi kerak.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari direktorining mediakompetentligini rivojlantirish uchun: maktabgacha ta’lim tashkilotlarni kompyuter texnikasi bilan jihozlash; kompyuter o’quv dasturlari bankini tizimlashtirish; didaktik va metodik materiallar tayyorlash; ta’lim jarayoni va boshqarish uchun dasturiy ta’minot faoliyati; va Internetga kirish xususiyatlaridan to’liq foydalanish; maktabgacha ta’lim saytini yanada rivojlantirish; maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-o’qituvchi va xodimlarining media madaniyatini takomillashtirish yanada yaxshi natija beradi[4].

Xulosa qilib aytganda, mediata’lim mamlakatimizning ta’lim sohasida, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida munosib o’rin egallashi lozim. Bu vazifani bajarishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari faoliyatini samarasini oshirish beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bizning mamlakatimizda mediata’limni rivojlantirish istiqbollari XXI asrda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, bugungi kunda o’ta dolzarb va ahamiyatli bo’lib turgan fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish muammolari bilan bevosita bog’liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risidagi 595-son qonun- Toshkent. sh.,2019 yil 16 dekabr,
2. Babadjonov S.S., Mannopov.A.A. Mesto i rol mediaobrazovaniya v sovremennom mire. Tambov. 2014.
3. Fedorov A.V. Sovremennyy mir i mediaobrazovanie. Jurnal «Mediyaobrazovanie» №2 2008g. G. Tagenrog.
4. Paxrutdinov Sh.I. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas’uliyati. T., Akademiya 2011.
5. Umarova N.T. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurash. Akademiya. T., 2005.